

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNI JISMONIY  
MADANIYATINI, AQLIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

Usmanov Nematullo Akmalovich  
anik va tabiiy fanlar kafedrası

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilanganligi haqida, jismoniy madaniyat va sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *jismoniy tarbiya, sport, tarbiyalash, jamiyat, mustahkamlash, kamol toptirish, barkamol, sog'lom.*

Bugun jahon andozalariga bo'ylashib borayotgan ta'lim sohasida fanlararo uzviylikni ta'minlash, ta'lim tizimiga ilg'or usullar bilan yangi mazmun va shakl berish yangi asr avlodini tarbiyalashning muhim jihatidir. Fan va ta'lim olamida integratsiyalashgan ta'lim xususida, uning mazmun - mohiyati haqida yangi fikrlar, qarashlar yuzaga kela boshladi. Ta'limning bunday shaklda tashkil etilishi ta'lim oluvchilarning keng qamrovli tarzda o'zlashtirishlarini, mavjud tasavvur va dunyoqarashlari doirasini yanada mukammal mazmun bilan boyishini ta'minlaydi.

Aqlan yetuk, fikran teran, sog'lom fikr yurituvchi va ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan shaxsni tarbiyalash ta'limda yosh xususiyatlariga e'tiborli bo'lish, o'qitishda ta'limning barcha bo'g'inlararo aloqadorligini ta'min etish va shaxs ongi va tafakkurida yangicha g'oya, tasavvurlarni shakllanishiga imkon beruvchi zamonaviy faol usullardan foydalanishni talab etadi.

Umumta'lim maktablaridagi ijtimoiy, gumanitar fanlar doirasida ta'limni noan'anaviy usullarini qo'llanilishi o'quvchi yoshlarning ijodiy tafakkurini shakllanishida, muloqot imkonini kengayishida, voqea - hodisalarga nisbatan baholashlari va qarashlarini shakllanishida, shuningdek, dars jarayonida vujudga kelgan qizg'in munozara va mantiqiy yechimlarni bevosita ishtirokchisi sifatida o'z faoliyatidan psixologik qoniqish hissini vujudga kelishi muhim ahamiyat kasb etadi. Integratsion tizim - bu to'liq dunyoqarashga ega, o'zida bor bilimlarni mustaqil tizimlash qobiliyati va turli xil muammolarni yechishda noan'anaviy yondashadigan to'liq ma'lumotga ega yosh insonni tarbiyalashga imkon beruvchi o'qitishning differentsiyasidir (turlanishidir). O'qitish maqsadidagi integratsiya - bu o'quvchini o'qitishni birinchi qadamlaridanoq olamni bir butunlikda va uni barcha elementlari o'zaro bog'liqligi haqida tasavvur berishdir.

Ta'limni tabaqalashtirish rad etmaydigan, uni to'ldiradigan integratsiya tizimini kiritish yaxlit dunyoqarashga, o'zidagi bor bilimlarini mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga noan'anaviy yondoshish qobiliyatiga ega bo'lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalashga an'anaviy fanlarga bo'lib o'qitishga nisbatan ko'proq yordam beradi. Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'likligini ko'rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur

qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich maktab amalga oshirishi lozim.

Integratsiya - predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarini qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni to'ldirish, ular orasidagi aloqalarni o'rnatishni talab etadi.

U ta'lim oluvchining bilimini oshirishga, ta'limdagi tor ixtisoslashtirishni yangilashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga integratsiya ta'limining klassik o'quv fanlari o'rnini egallash kerak emas, u faqat olinayotgan bilimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirishi kerak, xolos. Muammoning qiyin tomoni integratsiyaning ta'lim boshidan oxirigacha dinamik rivojlantirishdadir. Agar boshida "hamma narsa to'g'risida ozgina bilish" lozim bo'lgan bo'lsa, keyinchalik tarqoq bilim va ko'nikmalarni birlashtirish kerak bo'ladi va oxiriga kelib "ozgina narsa to'g'risida hammasini bilish" kerak bo'ladi, ya'ni bu yangi integratsiya darajasidagi ixtisoslashtirishdir.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-sonli qarori, ushbu sohada tub islohotlarni yangicha strategik yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirish uchun ayni muddao bo'ldi.

2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"dagi va 2019 yil 11 iyuldagi PF-5763-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-sonli "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida oliy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va multimedia resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilganligini inobatga olib sohasidagi islohotlarning eng muhim ahamiyatli tomoni shundaki, oliy ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning izchil joriy qilinishi natijasida ta'lim mazmunini jahon standartlari darajasiga olib chiqish, uning xalqaro ta'limi mazmuni, ta'lim nazariyasi va amaliyoti bilan o'yg'unlashuvi jarayonini kuchaytirdi.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki jismoniy madaniyat va sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi. Jismoniy tarbiya va sportga davlat siyosati miqyosida e'tibor qaratilmoqda. Yosh avlodni har tomonlama, aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlanishida jismoniy tarbiya asosiy o'rinlardan birini egallaydi. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy

tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunini hayotga joriy etib, jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy portni yanada rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sportchilarning yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash, Vatanimiz sportini xalqaro nufuzini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi va shaxsan Respublikamiz Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan katta e'tibor qaratilishi, tegishli qaror, farmon va qonunlarni ishlab chiqilayotganligi va hayotga tadbiiq etilayotganligi jismoniy madaniyat O'zbekiston tizimini taraqqiy etishiga zamin bo'lmoqda.

Talimda integratsiyani qo'llash bugungi kun o'quvchilari uchun fan qiyinchiliklari, mavzularning ortiqcha tushunarsiz holatlarini bartaraf etish, mavzularni o'quvchilar ong-u-shuuriga singib ketishi kabi mashaqqatli vaziyatlarning o'z yechimini topmoq yetakchi sifatida yordam bermoqda. Zamon tobora avj olib o'zgarayotgan bir paytda, ta'lim tizimimizga ham talaygina o'zgarishlar va yangiliklar kiritilmoqda. Shu jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi va ko'plab ixtisoslashtirilgan maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun fanlarni integratsiyalab o'tish talab qilinmoqda[3]. Integratsiya—so'zi lotincha "integro—tiklash, to'ldirish", "integer—butun" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, integratsiya—ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir[2]. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida tizimlarning bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir.

Integrativ ta'lim —o'quvchilarning ong-tasavvurida bizni o'rab turgan dunyo haqida yanada to'liq va atroflicha keng tasavvur qilish imkoniyatini yaratadi. Bolalar o'z bilimlarini amaliyotda aniq va lo'nda, ravon ifoda erishgan muayassar bo'lishadi, chunki bu yondashuvda bilimlarning tub mohiyati keng ochib berish imkoniyati olamni bir butunlikda, bir-biriga bog'liq holda tasavvur qilish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi[2].

O'qituvchilar o'z darslarida integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirish shakllantirar ekan, avvalo, o'zi kommunikativ shakllangan, integrativ dars ko'nikmalarini puxta egallagan bo'lishi darkor[5].

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berish jarayonida fanlararo integratsiyani barcha o'tilayotgan darsliklar mavzusida qo'llashimiz lozim.

Integrativ yondashuv nima ekanligini boshlang'ich sinf o'quvchilariga juda qiziqarli va esda qolarli qilib tushuntirish va ongiga singdirish lozim.

Integratsiya - an'anaviy ta'lim vositasi; oldin mavjud turlangan bilimlar kesishuvida bilmaganlarni to'ldirib olish, ular orasidagi mavjud aloqani o'rnatish; o'qitishda mavjud tor ixtisoslashuvni yangilash bilan o'quvchini bilim darajasini oshirish. Integratsiya negizida o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining har xil tiplarini shakllantirish, bu esa bilim (anglash) jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir.

Jumladan:

- tabiatda mavjud bulgan ob'ektlar orqali o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish;
- "tabiat - inson" sistemasida aniq bilimlarga ega bo'lishi uchun fikrlash qobiliyatini shakllantirish;
- materiallarni anglab yetish va didaktik adaptatsiya shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning xar xil tarmoqlaridan olish;

- o'quvchilarda sistemalashgan fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning xar xil tarmoqlaridan olish uchun dunyoning zamonaviy ilmiy kontekstidan foydalanish;

- tabiatning ob'ektlari va ko'rinishlarini, jarayonlarining, qonunlarini, jamiyatning rivojlanish qonunlarini iqtisodiyot gumanitik va demokratik bilimlarni shakllantirish;

- bilim, ko'nikma, malaka sistemasini ishlab chiqish;

- maktab ta'lim kurslaridagi integratsiyani ma'nosi, keng miqdordagi fikrlar va faktlar majmuasi, bir- biriga yaqin fanlarning birlashuvi;

- maktab o'quvchilarida har xil tipdagi fikrlash qobiliyatini shakllantirish, buning uchun ruhiy mashqlardan foydalanish, materialni tez o'zlashtirishiga yordam beradi, uni eslab qolish va emotsional anglash qobiliyatini shakllantiradi.

### ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Xasanova G. I. Q. Integrativ yondashuv asosida maktabgacha ta'lim yo'nalishi tarbiyachilarining pedagogik qobiliyatlarini takomillashtirish //Academic research in educational sciences. - 2021. - T. 2. - №. 12. - C. 826-830.

2. Hayitov A., Xo'Shboqova F. Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirish //Science and innovation. - 2022. - T. 1. - №. B7. - C. 1028-1034.

3. Toshtemirova S. A., Ilmurodova F. S. INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TASHXISLASH ASOSLARI //Academic research in educational sciences. - 2022. - T. 3. - №. 5. - C. 1030-1041.